



NAVOIY VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

NAVOIY VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

2023- yil yanvar-dekabr



Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini oshirish, joylarda xizmatlar sohasidagi mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanish, xizmat turlarini kengaytirish va sifatini oshirish, tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021- yil 11- maydagi PQ-5113-son qarori bilan "O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirishning maqsadli parametrlari" tasdiqlandi va ularning monitoringini olib borish joriy etildi.

Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2023- yil yanvar-dekabr)

**Xizmatlar sohasida
kichik tadbirkorlik
ulushi – 57,0%**


**Aholi jon boshiga
xizmatlar hajmi -
10 813,5
ming so'm**

**Xizmatlar sohasidagi
korxonalar va tashkilotlar
ulushi – 68,2%**




Xizmatlar sohasi bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmat turlarini takror ko'rsatishni o'z ichiga olgan umumlashtiruvchi kategoriyadir. Bu tijorat, professional va iste'mol xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan mamlakatning iqtisodiy sektoridir.

Soni, birlikda




Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar (1-yanvar holatiga ko'ra)



Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soniga nisbatan ulushi

Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar (yanvar-dekabr)

Soni, birlikda





Jami yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soniga nisbatan ulushi

Soni, birlikda

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari



(1-yanvar holatiga ko'ra)




Soni, birlikda

Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari


(yanvar-dekabr)



Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi ¹⁾ (yanvar-dekabr)



Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishiga xizmat turlarining qo'shgan hissasi
(2023- yil yanvar-dekabr)




¹⁾ Shu va keyingi o'rinlarda 2019-2022- yillar ko'rsatkichlari yillik yangilangan ma'lumotlar asosida keltirilgan

Hududlar kesimida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2023- yil yanvar-dekabr)


Nomi	Hajmi, <i>mlrd. so'mda</i>	O'sish sur'ati, % <i>da</i>	Ulushi, <i>% da</i>
Navoiy viloyati	11 520,7	112,5	100,0
Navoiy sh.	4 849,5	115,8	42,1
Zarafshon sh.	1 388,6	113,7	12,1
G'ozg'on sh.	32,2	112,4	0,3
Karmana t.	1 550,1	108,9	13,4
Konimex t.	250,9	111,4	2,2
Qiziltepa t.	1 022,2	112,0	8,9
Navbahor t.	627,4	108,1	5,4
Nurota t.	453,9	109,4	3,9
Tomdi t.	134,7	107,5	1,2
Uchquduq t.	352,1	109,4	3,1
Xatirchi t.	859,1	108,3	7,4

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslarga, shu jumladan norezidentlarga) qiymat vaqt davomida ko'rsatiladigan xizmatlar narxini aks ettiradi.


Aholi jon boshiga bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (yanvar-dekabr) 10 813,5



Hududlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar hajmi (2023- yil yanvar-dekabr)




Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (yanvar-dekabr)



Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida kichik korxonalar subyektlarining ulushi **57,0** foizni, shu jumladan, **17,4** foizni kichik tadbirkorlik va mikrofirmalarning ulushi tashkil etdi.

Hududlar kesimida xizmatlar sohasidagi kichik tadbirkorlik (2023- yil yanvar-dekabr)



Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari

(2023- yil yanvar-dekabr)

Nomi	Hajmi, mlrd. so'mda	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
Xizmatlar – jami	11 520,7	112,5	100,0
<i>shu jumladan:</i>			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	434,5	118,0	3,8
Moliyaviy xizmatlar	2 746,7	129,7	23,8
Transport xizmatlari	1 796,3	104,1	15,6
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	1 596,0	107,2	13,9
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	764,8	102,2	6,6
Savdo xizmatlari	3 427,4	107,4	29,7
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	185,2	101,5	1,6
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	418,2	118,1	3,6
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	156,2	104,0	1,4
Ijara xizmatlari	146,3	98,4	1,3
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	180,5	110,4	1,6
Shaxsiy xizmatlar	312,5	104,5	2,7
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	552,3	120,2	4,8
Boshqa xizmatlar	399,8	115,0	3,5


Tarmoqlar tasniflagichining belgilangan xalqaro standartlariga o'tish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirish Dasturining maqsadli parametrlariga kiritilgan xizmatlarning asosiy turlarini guruhlash, G dan S gacha bo'lgan bo'limlar bo'yicha xizmatlar bilan bog'liq bo'lgan qism va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) Statistik tasniflagichi (MST)ga ko'ra muvofiqlashtirildi.

Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari

2023- yilning yanvar-dekabr oylarida chakana savdoning ulushi savdo xizmatlari umumiy hajmining deyarli to'rtidan uch qismini, ya'ni **81,4** foizni tashkil etdi.

Savdo xizmatlari dinamikasi

(yanvar-dekabr)



Hududlar kesimida savdo xizmatlari

(2023- yil yanvar-dekabr)




■ Hajmi, mlrd. so'mda ● O'sishi

Transport xizmatlarining umumiy hajmida avtomobil transporti xizmatlari ustunlik qiladi – **88,8** foiz.

Navoiy shahrida transport xizmatlari hajmi **369,2** mlrd. so'mni tashkil etgan. Mazkur hududda transport xizmatlari hajmining o'sish sur'ati **110,2** foizni tashkil etgan.


Transport xizmatlari dinamikasi

(yanvar-dekabr)




Hududlar kesimida transport xizmatlari

(2023- yil yanvar-dekabr)



Avtomobil transporti xizmatlari dinamikasi (yanvar-dekabr)

2023- yil yanvar-dekabr oylarida avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **1 596,0** mlrd. so'mga yetdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **13,9** foizni tashkil etdi.



Navoiy viloyati

1 596,0

+7,2%

Qiziltepa

278,9

+9,7%

Karmana

245,8

+5,8%

Navoiy sh.

236,0

+12,0%

Zarafshon sh.

208,2

+7,8%

Xatirchi

198,7

+5,4%

Navbahor

136,4

+8,5%

Nurota

108,9

+4,1%

Uchquduq

75,1

+4,3%

Konimex

65,2

+6,8%

Tomdi

38,2

+9,3%

G'ozg'on sh.

4,6

+9,2%

 Hajmi, mlrd. so'mda  O'sishi

Hududlar kesimida avtomobil transporti xizmatlari


(2023- yil yanvar-dekabr)



Avtotransport xizmatlari umumiy hajmida Navoiy shahrining ulushi **14,8** foizni yoki **236,0** mlrd. so'mni tashkil etdi. **2022- yil yanvar-dekabr**ga nisbatan **112,0** foiz yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

Moliyaviy xizmatlar dinamikasi

(yanvar-dekabr)




Hududlar kesimida moliyaviy xizmatlar

(2023- yil yanvar-dekabr)

Hudud nomi	Hajmi, mlrd. so'mda	O'sishi
Navoiy viloyati	2 746,7	129,7%
Navoiy sh.	1 732,9	132,4%
Karmana	368,1	131,7%
Zarafshon sh.	245,7	122,1%
Qiziltepa	141,4	124,3%
Xatirchi	88,2	124,5%
Navbahor	57,2	123,7%
Uchquduq	42,2	116,3%
Nurota	34,3	117,4%
Konimex	18,7	118,8%
G'ozg'on sh.	10,5	114,7%
Tomdi	7,5	114,1%

Moliyaviy xizmatlar tarkibi

(2023- yil yanvar-dekabr)



Moliyaviy xizmatlarning umumiy hajmida Navoiy shahrining ulushi **63,1** foizni yoki **1 732,9** mlrd. so'mni tashkil etdi. **2022- yilning yanvar-dekabr** oylariga nisbatan Navoiy shahrida yuqori o'sish sur'ati **132,4** foizni tashkil etdi.

— Hajmi, mlrd. so'mda ○ O'sishi




Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmida eng katta hajmni telekommunikatsiya xizmatlari egallaydi. **2023- yilning yanvar-dekabr** oylarida ularning ulushi **95,1** foizni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari dinamikasi (yanvar-dekabr)




Hududlar kesimida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2023- yil yanvar-dekabr)



Ta'lim sohasidagi xizmatlar dinamikasi

(yanvar-dekabr)




2023- yil yanvar-dekabr oylarida ta'lim sohasining umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi 3,6 % ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida ta'lim sohasidagi xizmatlar

(2023- yil yanvar-dekabr)




Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar-dekabr)

2023 - yil yanvar-dekabr oylarida sog'liqni saqlash sohasining umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi 1,4 %ni tashkil etdi.




Hududlar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (2023- yil yanvar-dekabr)



Hajmi, mlrd. so'mda O'sishi


Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar dinamikasi

(yanvar-dekabr)



Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarning umumiy hajmida shaxsiy yoki ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berish va boshqarish bo'yicha xizmatlar **83,8** foizni tashkil etdi.


Hududlar kesimida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (2023- yil yanvar-dekabr)



■ Hajmi, mlrd. so'mda ● O'sishi

2023- yilning yanvar-dekabr oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar ustunlik qildi – **89,3 foiz**.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar dinamikasi (yanvar-dekabr)



Hududlar kesimida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2023- yil yanvar-dekabr)



■ Hajmi, mlrd. so'mda ● O'sishi

Ijara xizmatlari dinamikasi

(yanvar-dekabr)



Hududlar kesimida ijara xizmatlari (2023- yil yanvar-dekabr, mlrd. so'mda)




2019- yilning yanvar-dekabriga nisbatan o'rganilayotgan davrda ijara xizmatlari hajmi **60,6** mlrd. so'mga oshib, **146,3** mlrd. so'mga yetdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida **2023- yil yanvar-dekabr** oylarida avtomobillar va yengil avtotransport vositalarini ijaraga berish xizmatlari- ning ulushi **77,3 %** ni tashkil etdi.




Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari dinamikasi (yanvar-dekabr)




Boshqa shaxsiy foydalanish buyumlari va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar jami kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlarining **50,6** foizini tashkil etadi.

Hududlar kesimida kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari (2023- yil yanvar-dekabr)



Hajmi, mlrd. so'mda O'sish

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar-dekabr)



Hududlar kesimida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (2023- yil yanvar-dekabr, mlrd. so'mda)



2019- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan joriy yilning tahlil qilinayotgan davrida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi **354,5** mlrd. so'mga oshib, **552,3** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida **Zarafshon** shahrining ulushi **72,5** % ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi
Tel.: 79-223-63-31

Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlar uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Transport xizmatlarining hajmi amaldagi narxlarda transport turlari bo'yicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bog'liq bo'lgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.

Avtomobil transporti xizmatlariga temir yo'lda tashishdan tashqari, quruqlikdagi yo'lovchi transportining boshqa xizmatlari, avtomobil transportida yuk tashish bo'yicha xizmatlar va ko'chish bo'yicha xizmatlar kiradi.

Savdo xizmatlari, shu jumladan, elektron savdo xizmatlari hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, ya'ni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxlarini orasidagi farqining umumiy qiymati sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlari uchun oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda, xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yig'indisi sifatida aniqlanadi.

Telekommunikatsiya xizmatlari bu – ovozli, matnli, ovozli yoki video ma'lumotlarni uzatish kabi telekommunikatsiya va boshqa tegishli xizmatlarni taqdim etish.

“Ta’lim” seksiyasi kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek, Internet tarmog'i va pochta yozishmalari orqali xususiy yoki davlat tomonidan beriladigan turli darajadagi ta'limni va turli kasblarga o'rgatishni o'z ichiga oladi.

Bunga turli darajadagi muntazam maktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta'lim, shuningdek, kattalar uchun ta'lim (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta'lim sohasida yordamchi faoliyat va shunga o'xshash boshqalar kiradi.

Ta'lim sohasidagi faoliyatni amalga oshirishda masofaviy o'qitish shaklini ham hisobga olgan holda ko'rsatilgan bozor xizmatlari (kontrakt) qiymati aks ettiriladi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko'rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.

Ijara xizmatlari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarni operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi bu – kompyuterlar va periferik uskunalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish kommunikatsiya uskunalari (fakslar, radiostansiyalar)ni ta'mirlash, maishiy elektronika (radiopriyomniklar va televizorlar), uy va bog' uchun uskunalar (gazon o'ruvchi va havo (dam) beruvchi mashina), poyabzal va charm buyumlar, mebel va uy jihozlari, kiyim va aksessuarlar, sport anjomlari, musiqa asboblari va boshqa shaxsiy buyumlar va maishiy tovarlarni ta'mirlashdan tushgan tushum miqdoridir.

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi shartnomada nazarda tutilgan talablarga muvofiq loyihalar, izlanishlar, konstruktorlik va texnologik ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar, shuningdek, qurilish ishlari ustidan nazorat va boshqa injenerlik xizmatlarining qiymatini o'z ichiga oladi.